



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



No8(2)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 72 sahifa,
12-avgust, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapirjanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Woosyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (PhD)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oğlu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

The Role of English Collocations, Idiomatic Expressions, and Phraseological Units in Developing Communicative Competence in Higher Education.....	10
Alimov Jamshid Ravshanovich	
Milliy xoslangan lisoniy birliklarni teglash tamoyillari	16
Yorkulov Zafarjon Bakirovich	
Oila a'zolari o'rtasidagi o'zaro tushunishning shaxs kognitiv rivojlanishiga ta'sirining psixologik xususiyatlari	20
Vaydulla Madinabonu Muxtasam qizi	
O'qituvchilar darslarni qanday qiziqarli tashkil etishlari mumkin?.....	26
Dilnura Rustamovna Xamrayeva	
Tarbiya texnologiyasi – talabalarda ilmiy va sinergetik dunyoqarashni shakllantirish omili sifatida.....	33
Mamadaliyev Kamolidin Rahmatullayevich	
Maktab direktor maslahatchilarida strategik boshqaruv tafakkurini rivojlantirishning psixologik omillari.....	40
Rahmatova Nasiba Sobirovna	
Umumta'lim maktablarida harbiy-vatanparvarlik tarbiyasini sinfdan tashqari faoliyat orqali takomillashtirishning pedagogik-metodik tizimi.....	46
Urinbayeva Dilfuza Abdumannobovna	
Integrativ ta'lim texnologiyalari asosida bo'lajak geografiya o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish.....	50
Xoldavlatova Gavhar Normaxmatovna	
Klaster asosida TVET tizimida pedagogik innovatsiyalar	55
Sobir Azizov	
Muammoli ta'lim texnologiyasi orqali talabalarning kreativ fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish: "muammo" divergent–konvergent o'quv sikli.....	57
Djumabayev G'ulomjon Xalillayevich, Yusupov Muxtorbek Roximovich	
Oliy ta'lim muassasalari jismoniy tarbiya darslarida regbi elementlarini o'rgatishning tashkiliy-metodik asoslar	62
E. E. Jumayev	
Autentik materiallar asosida bo'lajak nemis tili o'qituvchilarining til ko'nikmalarini rivojlantirish metodikasining eksperimental samaradorligi.....	65
Jumayeva Gulxan Amrullayevna	



AUTENTIK MATERIALLAR ASOSIDA BO'LAJAK NEMIS TILI O'QITUVCHILARINING TIL KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH METODIKASINING EKSPERIMENTAL SAMARADORLIGI

Jumayeva Gulxan Amrullayevna

Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti
"Roman-german tillari" kafedrası dotsenti v. b.

ORCID: 0009-0007-2795-9560

Annotatsiya: Ushbu maqolada bo'lajak nemis tili mutaxassislarining kasbiy va til ko'nikmalarini o'stirishda autentik manbalarga tayanuvchi metodikaning amaliy natijalari tajriba-sinov ishlari misolida tahlil qilingan. Tadqiqot negizida kommunikativ, kompetensiyaviy va vazifaga yo'naltirilgan o'qitish tamoyillari yotadi. Pedagogik tajriba davomida autentik matnlar, audio-video vositalar hamda raqamli ta'lim resurslaridan iborat metodik modelning talabalarning nutq faoliyati turlariga (tinglash, o'qish, yozish, gapirish) ko'rsatgan ta'siri baholandi. Matematik-statistik tahlil natijalari tajriba guruhidagi ko'rsatkichlar nazorat guruhiga qaraganda sezilarli darajada yuqori va barqaror ekanini tasdiqladi.

Kalit so'zlar: autentik materiallar, nemis tili, kommunikativ kompetensiya, til ko'nikmalari, bo'lajak o'qituvchi, pedagogik eksperiment, CEFR, kommunikativ yondashuv, kompetensiyaviy ta'lim, metodika.

Abstract: This article examines the experimental effectiveness of a training methodology based on authentic materials to enhance the language proficiency of future German language teachers. The research framework is grounded in communicative language teaching, competency-based education, and task-based instruction. Throughout the pedagogical experiment, an integrative approach utilizing authentic texts, audio-visual tools, and digital resources was evaluated regarding its impact on students' receptive and productive skills. Mathematical and statistical analyses demonstrated statistically significant advantages in the experimental group compared to the control group, confirming the high practical efficacy of systematic authentic resource integration.

Key words: authentic materials, German language, communicative competence, language skills, pre-service teachers, pedagogical experiment, CEFR, communicative approach, competency-based learning, teaching methodology.

Аннотация: В статье рассматривается экспериментальная эффективность методической модели развития языковых навыков будущих учителей немецкого языка с использованием аутентичных ресурсов. В основу исследования положены коммуникативный, компетентностный и задачно-ориентированный подходы. В ходе педагогического эксперимента оценивалось комплексное влияние аутентичных текстов, аудио- и видеоматериалов на динамику формирования навыков аудирования, чтения, письма и говорения. Статистическая обработка результатов подтвердила существенное преимущество показателей экспериментальной группы над контрольной.

Ключевые слова: аутентичные материалы, немецкий язык, коммуникативная компетенция, языковые навыки, будущий учитель, педагогический эксперимент, CEFR, коммуникативный подход, компетентностное обучение, методика.

KIRISH

Bugungi xalqaro ta'lim amaliyotida xorijiy tillarni o'rgatishning kompetensiyaviy modeli yetakchi o'ringa chiqdi. Zamonaviy pedagogik konsepsiyalar til o'rgatishni quruq grammatik qoidalar majmui bilan cheklamaydi. Aksincha, asosiy e'tibor o'rganuvchini real hayotiy va kasbiy vaziyatlarda erkin muloqot qila oladigan shaxs sifatida shakllantirishga qaratilmoqda. Shu bois, bo'lajak xorijiy til mutaxassislarini tayyorlashda dars jarayoniga autentik materiallarni olib kirish muhim didaktik ehtiyojga aylandi.

Yevropa Kengashining yangilangan tavsiyalarida (CEFR Companion Volume, 2020) nutq faoliyatining barcha turlari va mediatsiya kompetensiyasini bir-biri bilan uzviy bog'liq holda rivojlantirish zarurligi uqtiladi ^[13]. Ushbu yondashuv til egalari foydalanadigan real matnlar, podkastlar, videomateriallar hamda raqamli resurslar orqali o'rganuvchilarni tabiiy til muhitiga olib kirishni taqozo etadi ^[4].

Xorijiy tilshunoslik va metodikada autentik vositalarning imkoniyatlari H. G. Widdowson, F. Mishan, A. Gilmore, B. Tomlinson, J. C. Richards kabi olimlar tomonidan atroflicha o'rganilgan ^[2; 9]. Ularning izlanishlari autentik manbalar o'quvchilarning pragmatik fikrlashini o'stirish, motivatsiyasini oshirish hamda madaniyatlara muloqot to'siqlarini olib tashlashda tengsiz vosita ekanini ko'rsatadi.

Mamlakatimizda ham chet tili ta'limini tubdan isloh qilish davlat siyosatining doimiy diqqat markazida bo'lib kelmoqda. Prezidentimizning PQ-5117-son¹ qarorida xalqaro standartlarga mos, raqobatbardosh kadrlarni tayyorlashda zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash vazifasi qat'iy belgilab berilgan ^[1]. Bu esa oliy ta'lim tizimida bo'lajak nemis tili o'qituvchilarini tayyorlash metodikasini yangicha bosqichga olib chiqishni talab etadi.

Milliy metodika va tilshunoslik sohasida J. Jalolov, M. Irisqulov, N. Mahmudov, Sh. Safarov, B. Mengliyev hamda D. Xudoyberganovlarning ilmiy qarashlari fundamental poydevor vazifasini o'taydi ^[16; 21]. Biroq, ushbu nazariy qarashlarga qaramay, bo'lajak nemis tili o'qituvchilarning kompleks til ko'nikmalarini oshirishda autentik materiallarga asoslangan metodikaning aniq amaliy-eksperimental natijalari oliy ta'limimiz kontekstida hali yetarlicha kompleks tadqiq etilmagan edi.

Biz o'z tadqiqotimizda aynan ushbu masalani chuqurroq o'rganishni va amaliy jihatdan asoslashni maqsad qildik. Ishimizning amaliy qimmatli jihati shundaki, unda autentik manbalarga tayanuvchi integrativ metodik model yaratildi, baholash mezonlari aniqlashtirildi hamda uning natijalari pedagogik eksperiment va matematik-statistik usullar yordamida isbotlab berildi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Xorijiy tillarni o'qitishda kommunikativ yondashuv XX asrning ikkinchi yarmida D. Hymes tomonidan ilgari surilgan kompetensiya nazariyasi bilan yangi bosqichga ko'tarildi ^[2].

Keyinchalik M. Canale va M. Swain bu modelni yanada boyitib, grammatik, sotsiolingvistik, diskursiv hamda strategik tarkibiy qismlarni ajratib ko'rsatdilar ^[3].

L. F. Bachman esa til kompetensiyasini tashkiliy va pragmatik imkoniyatlar birligi sifatida baholash mezonlarini taklif etdi ^[4].

Autentik materiallar bilan ishlash metodikasi bo'yicha H. G. Widdowson ularni tabiiy muloqot muhitini sinf xonasiga ko'chirish vositasi deb hisoblaydi ^[5].

F. Mishan material tanlashda ularning kommunikativ qiymati va o'rganuvchi darajasiga mosligini asosiy shart qilib qo'yadi ^[6].

A. Gilmore esa autentik matnlar o'quvchini real hayotiy muloqotga tayyorlashini empirik ma'lumotlar bilan isbotladi ^[7].

B. Tomlinson fikricha, bunday materiallar o'rganuvchida mustaqil va tanqidiy fikrlashni keskin faollashtiradi ^[8].

CLT (Communicative Language Teaching) va TBLT (Task-Based Language Teaching) konsepsiyalari doirasida J. C. Richards, D. Nunan, R. Ellis va W. Littlewood xulosalariga ko'ra, til birliklarini alohida yodlashdan ko'ra, ularni amaliy vazifalarni bajarish jarayonida o'zlashtirish ancha yuqori samara beradi ^[9-12].

O'zbekiston chet tili o'qitish metodikasi maktabining asoschilaridan biri J. Jalolov hamda M. Irisqulov, N. Mahmudov tadqiqotlarida nutq faoliyatini kompleks rivojlantirish masalalari yoritilgan ^[16; 18].

Sh. Safarovning pragmatik yondashuvlari, B. Mengliyev va D. Xudoyberganovlarning diskurs va matn lingvistikasiga bag'ishlangan ishlari autentik matnlarni tahlil qilishning nazariy kaliti bo'lib xizmat qiladi ^[19; 21].

Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, xorijiy va mahalliy tadqiqotlar mavjud bo'lishiga qaramay, bo'lajak nemis tili o'qituvchilarida til ko'nikmalarini o'stirishda autentik vositalarning samaradorligi aniq matematik-statistik dalillar bilan yetarlicha yoritib berilmagan edi. Mazkur tadqiqotimiz aynan shu ilmiy zaruriyatdan kelib chiqib amalga oshirildi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotimizda sifat va miqdoriy ko'rsatkichlarni uyg'unlashtirgan aralash metodologiya (mixed methods) dan foydalanildi. Nazariy bosqichda mavjud adabiyotlar, xalqaro va mahalliy tajriba tizimlashtirildi hamda tadqiqotning metodik modeli tuzildi ^[2; 6]. Empirik bosqichda esa kuzatuv, diagnostik testlar hamda pedagogik tajriba-sinov usullari qo'llanildi. Eksperiment Nizomiy nomidagi O'zMPU, SamDU, AnDU, NamDU, UrDU va BuxDUlarning nemis tili yo'nalishi talabalari ishtirokida o'tkazildi. Jami 203 nafar talaba jalb etilib, ular tajriba va nazorat guruhlariga ajratildi.

1 <https://lex.uz/uz/docs/-5426736>



Boshlang'ich bosqichda har ikkala guruhning akademik ko'rsatkichlari va til darajasi tengligi ta'minlandi. Tajriba guruhida darslar Deutsche Welle, Goethe-Institut, Tagesschau kabi manbalardan olingan matnlar, podkastlar, videolavhalar va interaktiv kommunikativ topshiriqlar bilan olib borildi. Nazorat guruhida esa mashg'ulotlar an'anaviy davlat dasturi va darsliklari asosida davom ettirildi. Natijalarni xolis baholash uchun CEFR (2020) mezonlariga mos diagnostik topshiriqlar qo'llanildi ^[13].

Qayd etilgan ma'lumotlar o'rtacha arifmetik qiymat, variatsiya ko'rsatkichi, Student mezon (t-test) hamda B. P. Bepalko koeffitsienti yordamida matematik-statistik tahlil qilindi.

1-jadval: Tadqiqot metodologiyasi va tajriba-sinov jarayonining asosiy ko'rsatkichlari

Ko'rsatkich	Mazmuni
Tadqiqot turi	Aralash metodologiya (Mixed Methods Research)
Tadqiqot dizayni	Pedagogik tajriba-sinov (eksperiment)
Ishtirokchilar	Jami: 203 nafar talaba Tajriba guruhi :102 nafar Nazorat guruhi :101 nafar
Tadqiqot bazasi	Nizomiy nomidagi O'zMPU, SamDU, AnDU, NamDU, UrDU va BuxDU
Tajriba guruhlaridagi yondashuv	Lingvokognitiv, matniy-kommunikativ autentik ishlanmalar
Nazorat guruhlaridagi yondashuv	Amaldagi o'quv dasturi va an'anaviy mashg'ulotlar
Tajriba-sinov bosqichlari	Aniqlovchi, shakllantiruvchi va yakuniy-nazorat bosqichlari
Asosiy baholash mezonlari	Matnni tushunish va axborotni saralash; leksik-grammatik to'g'rilik; yozma matnning mantiqiy izchilligi va tuzilishi; kommunikativ-uslubiy muvofiqlik; refleksiv-tahririy faoliyat
Statistik tahlil	O'rtacha qiymat, dispersiya, variatsiya ko'rsatkichi, Student mezon, ishonch oralig'i, samaradorlik koeffitsienti va Bepalko koeffitsienti

TAHLIL VA NATIJALAR

Tajriba va nazorat guruhlari talabalari eksperimentdan oldin (pre-test) va keyin (post-test) to'rtta nutq faoliyati turi bo'yicha baholandi. Dastlabki diagnostika har ikki guruhda bilim darajasi deyarli bir xil ekanini ko'rsatgan edi. Tajriba yakunida esa sezilarli dinamika ko'zga tashlandi. Ayniqsa, tinglab tushunish va gapirish ko'nikmalarida tajriba guruhi talabalari keskin ilgarilab ketdilar. Bu holat autentik materiallarning jonli nutq muhitini yaratib bergani bilan izohlanadi ^[6; 7].

Tajriba-sinov jarayonida tajriba va nazorat guruhlarida ishtirok etgan talabalarining til va nutq faoliyatiga oid ko'nikmalari belgilangan mezonlar asosida baholandi. Baholashda matnni tushunish va axborotni saralash, leksik-grammatik to'g'rilik, yozma matnning mantiqiy tuzilishi, kommunikativ-uslubiy muvofiqlik hamda refleksiv-tahririy faoliyat mezonlari asos qilib olindi. Har ikki guruhdagi talabalar yuqori, o'rta va past darajalar bo'yicha tasniflandi. Tajriba-sinov yakunlari 2-jadvalda keltirilgan.

2-jadval: Tajriba va nazorat guruhlari natijalarining qiyosiy ko'rsatkichlari

Baholash mezonlari	Tajriba guruhi (n=102)	Nazorat guruhi (n=101)	Tajriba guruhi o'rtacha	Nazorat guruhi o'rtacha	Samaradorlik koeffitsiyenti
Matnni tushunish va axborot saralash	31 yuqori, 50 o'rta, 21 past	15 yuqori, 30 o'rta, 56 past	4,10	3,59	1,14
Leksik-gram-matik to'g'rilik	30 yuqori, 52 o'rta, 20 past	14 yuqori, 33 o'rta, 54 past	4,10	3,60	1,14
Yozma matnning mantiqiy tuzilishi	28 yuqori, 51 o'rta, 23 past	14 yuqori, 32 o'rta, 55 past	4,05	3,59	1,13
Kommunikativ-uslubiy muvofiqlik	31 yuqori, 51 o'rta, 20 past	14 yuqori, 35 o'rta, 52 past	4,11	3,62	1,13
Refleksiv-tahririy faoliyat	28 yuqori, 53 o'rta, 21 past	13 yuqori, 34 o'rta, 54 past	4,07	3,59	1,13

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, barcha baholash mezonlari bo'yicha tajriba guruhining o'rtacha ko'rsatkichlari nazorat guruhinikidan yuqori bo'lgan. Xususan, matnni tushunish va axborotni saralash mezonlari bo'yicha tajriba guruhining o'rtacha ko'rsatkichi 4,10 ni, nazorat guruhiniki esa 3,59 ni tashkil etdi. Leksik-grammatik to'g'rilik bo'yicha mos ravishda 4,10 va 3,60 natija qayd etildi. Yozma matnning mantiqiy tuzilishi bo'yicha tajriba guruhi 4,05, nazorat guruhi esa 3,59 o'rtacha ko'rsatkichga ega bo'ldi. Kommunikativ-uslubiy muvofiqlik mezonida tajriba guruhi 4,11 natija bilan eng yuqori o'rtacha ko'rsatkichni qayd etdi, nazorat guruhida esa ushbu ko'rsatkich 3,62 ni tashkil etdi. Refleksiv-tahririy faoliyat bo'yicha ham tajriba guruhi (4,07) nazorat guruhidan (3,59) yuqori natija ko'rsatdi. Darajalar bo'yicha taqsimot ham tajriba guruhidagi ijobiy o'zgarishni ko'rsatadi. Masalan, matnni tushunish va axborotni saralash mezonida tajriba guruhida 31 nafar talaba yuqori darajani qayd etgan bo'lsa, nazorat guruhida bunday talabalar soni 15 nafarni tashkil etdi. Shu bilan birga, past darajadagi talabalar soni tajriba guruhida 21 nafar, nazorat guruhida esa 56 nafar bo'lgan.

Mazkur nisbat autentik materiallar asosida tashkil etilgan ta'lim jarayonining ijobiy natijasini ko'rsatadi. Shunga o'xshash tendensiya boshqa mezonlarda ham kuzatiladi. Leksik-grammatik to'g'rilik bo'yicha yuqori darajadagi talabalar tajriba guruhida 30 nafarni, nazorat guruhida 14 nafarni tashkil etgan. Kommunikativ-uslubiy muvofiqlik mezonida esa ushbu ko'rsatkich mos ravishda 31 va 14 nafarni tashkil etdi. Bu natijalar tajriba guruhida autentik materiallar va kommunikativ topshiriqlardan tizimli foydalanish talabalarning amaliy til faoliyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatganini ko'rsatadi. Samaradorlik koeffitsienti barcha mezonlar bo'yicha 1,13–1,14 oralig'ida qayd etildi. Mazkur ko'rsatkichlar tajriba guruhidagi o'rtacha natijalarning nazorat guruhiga nisbatan yuqoriligini ifodalaydi. Natijalarning statistik ishonchligini aniqlash maqsadida Styudentning t-mezoni ham qo'llanildi. Hisob-kitoblarga ko'ra, matnni tushunish bo'yicha $t = 4,23$, leksik-grammatik to'g'rilik bo'yicha $t = 4,19$, yozma nutq strukturasi bo'yicha $t = 3,84$, kommunikativ muvofiqlik bo'yicha $t = 4,10$ hamda refleksiv faoliyat bo'yicha $t = 4,05$ qiymatlar olindi. Ushbu qiymatlar maqolada qabul qilingan 1,97 kritik qiymatdan yuqori bo'lib, tajriba va nazorat guruhlari natijalari o'rtasidagi farqning statistik jihatdan ahamiyatli ekanini ko'rsatadi.

Shunday qilib, tajriba natijalari autentik materiallarga asoslangan metodik modelning bo'lajak nemis tili o'qituvchilarining til ko'nikmalarini rivojlantirishga ijobiy ta'sir ko'rsatganini ko'rsatadi. Tadqiqot davomida olingan natijalar autentik materiallarga asoslangan metodik yondashuvning bo'lajak nemis tili o'qituvchilarining til va kommunikativ ko'nikmalarini rivojlantirishdagi samaradorligini ko'rsatdi. Tajriba va nazorat guruhlari natijalarining qiyosiy tahlili barcha baholash mezonlari bo'yicha tajriba guruhining ustunligini namoyon etdi.

Xususan, tajriba guruhida o'rtacha ko'rsatkichlar 4,05–4,11 oralig'ida, nazorat guruhida esa 3,59–3,62 oralig'ida qayd etildi. Mazkur farq autentik materiallardan tizimli va maqsadli foydalanishning ta'lim natijalariga ijobiy ta'sir ko'rsatganini ko'rsatadi. Tajriba guruhida eng yuqori o'rtacha natija kommunikativ-uslubiy muvofiqlik mezonlari bo'yicha 4,11 ni tashkil etgani alohida e'tiborga loyiq. Bu natijani autentik materiallarning real kommunikativ vaziyatlarni modellashtirish imkoniyati bilan izohlash mumkin. Tabiiy muloqotga xos leksik birliklar, nutqiy formulalar, uslubiy farqlar va kommunikativ vaziyatlarning o'quv jarayoniga kiritilishi talabalarni til birliklarini faqat grammatik jihatdan to'g'ri qo'llashga emas, balki ularni muayyan kommunikativ vaziyatga mos ravishda tanlashga ham yo'naltiradi. Bu jihat Widdowson tomonidan autentik materiallarning tabiiy kommunikativ muhitni ta'lim jarayoniga olib kirish imkoniyati haqidagi qarashlari bilan hamohangdir. Matnni tushunish va axborotni saralash mezonida tajriba guruhining o'rtacha ko'rsatkichi 4,10, nazorat guruhiniki esa 3,59 bo'ldi. Shuningdek, ushbu mezon bo'yicha yuqori darajadagi talabalar soni tajriba guruhida 31 nafarni, nazorat guruhida 15 nafarni tashkil etdi, past darajadagi talabalar esa mos ravishda 21 va 56 nafar bo'lgan. Bu natija autentik matnlar bilan ishlash talabalarning asosiy va ikkilamchi axborotni ajratish, matn mazmunini kontekst asosida anglash hamda real kommunikativ mazmunni tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qilganini ko'rsatadi.

Leksik-grammatik to'g'rilik bo'yicha ham tajriba guruhi yuqori natijani qayd etdi: o'rtacha ko'rsatkich 4,10, nazorat guruhida esa 3,60 bo'lgan. Tajriba guruhida yuqori darajadagi talabalar sonining 30 nafar, nazorat guruhida esa 14 nafar bo'lishi mazkur farqni yanada yaqqol namoyon etadi. Bu holat autentik materiallarda grammatik va leksik birliklarning alohida, sun'iy misollar sifatida emas, balki real nutqiy kontekstda uchrashi bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Bunday yondashuv talabalarga til birliklarining shakli bilan bir qatorda ularning vazifasi va qo'llanish shartlarini ham anglash imkonini beradi. Yozma matnning mantiqiy tuzilishi bo'yicha tajriba guruhining o'rtacha ko'rsatkichi 4,05 ni, nazorat guruhiniki esa 3,59 ni tashkil etdi. Ushbu natija autentik materiallar asosida tashkil etilgan topshiriqlar talabalarning matnni tahlil qilish, fikrlarni mantiqiy ketma-ketlikda ifodalash va yozma nutqni maqsadga muvofiq tashkil etish qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam berganini ko'rsatadi. Bunda o'qish va yozish faoliyatlarining o'zaro integratsiyasi muhim metodik omil sifatida namoyon bo'ladi. Refleksiv-tahririy faoliyat mezonida ham tajriba guruhi yuqori natijaga ega bo'ldi: 4,07 ga nisbatan 3,59. Bu natija autentik materiallar bilan ishlash jarayonida talabalarni o'z faoliyatini tahlil qilish, xatolarini aniqlash va o'z nutqini takomillashtirishga yo'naltiruvchi topshiriqlarning ahamiyatini ko'rsatadi. Shu jihatdan, autentik materiallardan foydalanish faqat retseptiv va produktiv ko'nikmalarni emas, balki o'rganuvchining o'z ta'lim faoliyatiga nisbatan refleksiv munosabatini ham rivojlantirish imkoniyatiga ega.



Tadqiqot natijalari autentik materiallarning samaradorligi ularning shunchaki dars jarayoniga kiritilishi bilan emas, balki didaktik maqsadga muvofiq tanlanishi va kommunikativ topshiriqlar bilan bog'lanishi bilan ta'minlanishini ko'rsatadi. Mazkur yondashuv Mishanning autentiklikni materialning kommunikativ qiymati, o'rganuvchi darajasiga mosligi va ta'lim maqsadlari bilan bog'lash zarurligi haqidagi qarashlariga mos keladi. Tajriba natijalarining statistik tahlili ham ushbu xulosalarni qo'llab-quvvatlaydi. Tadqiqotda matnni tushunish bo'yicha $t = 4,23$, leksik-grammatik to'g'rilik bo'yicha $t = 4,19$, yozma nutq strukturasi bo'yicha $t = 3,84$, kommunikativ muvofiqlik bo'yicha $t = 4,10$ hamda refleksiv faoliyat bo'yicha $t = 4,05$ qiymatlar qayd etilgan. Ushbu qiymatlarning maqolada belgilangan 1,97 kritik qiymatdan yuqoriligi tajriba va nazorat guruhlar o'rtasidagi farqlarning statistik jihatdan ahamiyatli ekanini ko'rsatadi. Mazkur natijalar kommunikativ til o'qitish va vazifaga yo'naltirilgan ta'lim tamoyillari bilan ham uyg'unlashadi. Autentik materiallar asosida tashkil etilgan topshiriqlarda talabalar til birliklarini tayyor shaklda o'zlashtirishdan ko'ra, ularni ma'lum kommunikativ vazifani bajarish jarayonida qo'llaydilar. Shu sababli o'quv jarayonida til bilimlari bilan bir qatorda kommunikativ strategiyalar, kontekstni anglash va mos nutqiy vositalarni tanlash ko'nikmalari ham shakllanadi. Maqolada ko'rib chiqilgan CLT va TBLT yondashuvlarining asosiy tamoyillari ham aynan tilni real faoliyat va kommunikativ vazifa bilan bog'lashga qaratilgan. Shuningdek, tadqiqot natijalari CEFR Companion Volume (2020)da ilgari surilgan zamonaviy kompetensiyaviy yondashuv bilan ham mos keladi. Xususan, til faoliyatining turli turlarini integratsiyalash, kommunikativ vaziyatlarda faol ishtirok etish va o'rganuvchining mustaqil faoliyatini rivojlantirish autentik materiallardan foydalanish orqali amaliy jihatdan ta'minlanishi mumkin.

Shu bilan birga, olingan natijalarni talqin qilishda tadqiqotning ayrim chegaralarini ham hisobga olish lozim. Tajriba muayyan oliy ta'lim muassasalarining nemis tili yo'nalishida tahsil olayotgan talabalar ishtirokida tashkil etilgan bo'lib, metodikaning boshqa ta'lim bosqichlari yoki boshqa xorijiy tillarni o'qitish sharoitlaridagi samaradorligini alohida tadqiq etish talab etiladi. Bundan tashqari, autentik materiallarning samaradorligi ularning mazmuni, murakkablik darajasi, talabaning til tayyorgarligi va o'qituvchi tomonidan tashkil etilgan metodik topshiriqlarga bog'liq bo'lishi mumkin. Shu sababli keyingi tadqiqotlarda turli darajadagi talabalar bilan uzoq muddatli eksperimentlar o'tkazish, raqamli va sun'iy intellektga asoslangan autentik resurslarning ta'sirini alohida o'rganish maqsadga muvofiq. Umuman olganda, muhokama qilingan natijalar autentik materiallarga asoslangan metodikaning bo'lajak nemis tili o'qituvchilarining til ko'nikmalarini kompleks rivojlantirishdagi amaliy imkoniyatlarini tasdiqlaydi. Ayniqsa, tajriba guruhining barcha baholash mezonlari bo'yicha yuqori o'rtacha natijalarga erishgani, yuqori darajadagi talabalar ulushining ortgani, past darajadagi ko'rsatkichlarning kamaygani hamda statistik tahlilda yuqori t qiymatlarining qayd etilgani taklif etilayotgan metodikaning samaradorligini kompleks ravishda asoslaydi.

XULOSA

O'tkazilgan pedagogik tajriba-sinov natijalari autentik materiallarga asoslangan metodikaning bo'lajak nemis tili o'qituvchilarining til va nutq ko'nikmalarini rivojlantirishdagi amaliy samaradorligini ko'rsatdi. Tadqiqotda tajriba guruhida autentik matnlar, audio-video materiallar, podkastlar, raqamli resurslar va kommunikativ topshiriqlarning tizimli qo'llanilishi talabalarining tinglab tushunish, o'qish, yozish va gapirish faoliyatlarini kompleks rivojlantirishga xizmat qildi. Tadqiqotning statistik natijalari ham mazkur xulosani qo'llab-quvvatlaydi. Tajriba va nazorat guruhlar natijalarini taqqoslashda barcha asosiy mezonlar bo'yicha Student t-mezone qiymatlari 1,97 ga teng bo'lgan kritik qiymatdan yuqori natijalarni ko'rsatdi. Xususan, matnni tushunish bo'yicha $t = 4,23$, leksik-grammatik to'g'rilik bo'yicha $t = 4,19$, yozma nutq strukturasi bo'yicha $t = 3,84$, kommunikativ muvofiqlik bo'yicha $t = 4,10$ va refleksiv faoliyat bo'yicha $t = 4,05$ qiymatlari aniqlandi. Ushbu ko'rsatkichlar tajriba va nazorat guruhlar natijalari o'rtasidagi farq statistik jihatdan sezilarli ekanini ko'rsatadi. Samaradorlik koeffitsientining 1,13–1,15 oralig'ida qayd etilishi ham tajriba guruhida qo'llanilgan metodik yondashuvning amaliy ustunligini ko'rsatadi. Shu nuqtayi nazardan, autentik materiallardan maqsadli, tizimli va CEFR mezonlariga mos ravishda foydalanish bo'lajak nemis tili o'qituvchilarining nafaqat alohida til ko'nikmalarini, balki kommunikativ faoliyatni real vaziyatlarga yaqin sharoitda amalga oshirish qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradi.

Shu bilan birga, tadqiqot natijalari autentik materiallarning samaradorligi ularni shunchaki dars jarayoniga kiritish bilangina emas, balki ularni o'quv maqsadi, talabaning til darajasi, kommunikativ vazifa va baholash mezonlari bilan uzviy bog'lash orqali ta'minlanishini ko'rsatadi. Demak, autentik resurslar metodik jihatdan to'g'ri tanlangan va didaktik topshiriqlar bilan integratsiyalangan taqdiridagina yuqori pedagogik natija berishi mumkin. Tadqiqot natijalari asosida quyidagi amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi: Oliy ta'lim muassasalarida nemis tili o'qitish metodikasi va amaliy kurslar dasturiga autentik resurslardan foydalanish bo'yicha maxsus o'quv modullarini kiritish; Deutsche Welle, Goethe-Institut, Tagesschau kabi ishonchli va ta'limiy qiymatga ega manbalarning audio, video va matnli resurslaridan dars jarayonida tizimli foydalanish; bo'lajak nemis tili o'qituvchilari uchun autentik materiallar, kommunikativ topshiriqlar va baholash mezonlarini birlashtirgan raqamli o'quv-metodik

majmualarni yaratish; talabalarning til va nutq ko'nikmalarini baholashda CEFR Companion Volume (2020) mezonlariga mos diagnostik topshiriqlardan foydalanish; autentik materiallar asosidagi metodikani raqamli texnologiyalar, sun'iy intellekt va adaptiv ta'lim platformalari bilan integratsiya qilish imkoniyatlarini keyingi tadqiqotlarda o'rganish. Umuman olganda, tadqiqotning nazariy va empirik natijalari autentik materiallardan tizimli foydalanish bo'lajak nemis tili o'qituvchilarining kommunikativ va til kompetensiyalarini rivojlantirish uchun samarali metodik vosita bo'la olishini ko'rsatadi. Olingan statistik natijalar taklif etilgan metodikaning amaliy samaradorligini asoslash uchun yetarli daliliy asos yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-son "Xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori. <https://lex.uz/uz/docs/-5426736>
2. Hymes D. On Communicative Competence // Sociolinguistics. – Harmondsworth: Penguin Books, 1972. – P. 269–293.
3. Canale M., Swain M. Theoretical Bases of Communicative Approaches to Second Language Teaching and Testing // Applied Linguistics. – 1980. – Vol. 1. – No. 1. – P. 1–47.
4. Bachman L. F. Fundamental Considerations in Language Testing. – Oxford: Oxford University Press, 1990. – 408 p.
5. Widdowson H. G. Teaching Language as Communication. – Oxford: Oxford University Press, 1978. – 168 p.
6. Mishan F. Designing Authenticity into Language Learning Materials. – Bristol: Intellect Books, 2005. – 314 p.
7. Gilmore A. Authentic Materials and Authenticity in Foreign Language Learning // Language Teaching. – 2007. – Vol. 40. – No. 2. – P. 97–118.
8. Tomlinson B. Materials Development in Language Teaching. – 2nd ed. – Cambridge: Cambridge University Press, 2011. – 472 p.
9. Richards J. C. Communicative Language Teaching Today. – Cambridge: Cambridge University Press, 2006. – 56 p.
10. Nunan D. Task-Based Language Teaching. – Cambridge: Cambridge University Press, 2004. – 240 p.
11. Ellis R. Task-Based Language Learning and Teaching. – Oxford: Oxford University Press, 2003. – 387 p.
12. Littlewood W. Communicative Language Teaching. – Cambridge: Cambridge University Press, 1981. – 108 p.
13. Council of Europe. Common European Framework of Reference for Languages: Learning, Teaching, Assessment. Companion Volume. – Strasbourg: Council of Europe Publishing, 2020. – 235 p.
14. Krashen S. D. Principles and Practice in Second Language Acquisition. – Oxford: Pergamon Press, 1982. – 202 p.
15. Nation I. S. P. Learning Vocabulary in Another Language. – Cambridge: Cambridge University Press, 2001. – 477 p.
16. Jalolov J. J. Chet til o'qitish metodikasi. – Toshkent: O'qituvchi, 2012. – 320 b.
17. Irisqulov M. T. Tilshunoslikka kirish. – Toshkent: O'qituvchi, 2009. – 280 b.
18. Mahmudov N. Til va nutq. – Toshkent: Ma'naviyat, 2013. – 232 b.
19. Safarov Sh. Pragmalingvistika. – Toshkent: Akademnashr, 2008. – 286 b.
20. Mengliyev B. Hozirgi o'zbek tili. – Toshkent: Tafakkur Bo'stoni, 2018. – 400 b.
21. Xudoyberganova D. Matn lingvistikasi. – Toshkent: Fan, 2015. – 256 b.
22. Nurmonov A. Lingvistik nazariya va metodologiya. – Toshkent: Akademnashr, 2010. – 272 b.
23. Yo'ldoshev M. Badiiy matn va uning lingvopoetik tahlili. – Toshkent: Fan, 2007. – 310 b.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №8(2)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.